



O'ZBEKISTON SANOATIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA ULARNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich
National Institute of Metrology of Uzbekistan
deputy director of a state institution

Annotatsiya. Mamlakatimiz sanoatiga investitsiyalarni jalg qilish va investitsion salohiyatini yaxshilash borasida samarali iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy dastaklaridan biri bo'lgan investitsiya va uning jozibadorligini oshirish har bir davlat oldida turgan ustuvor masalalardan biridir. Maqolada mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ularning hududlar kesimida tahlili hamda uning jozibadorligini oshirish borasida bir qator rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'rganib chiqqan holatda taklif va mulohazalar aytil o'tilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro investitsiya, investitsion salohiyat, hududlarning investitsion salohiyat, asosiy kapitalga investitsiyalar, markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar.

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning eng samarali va maqbul yo'li ham investitsiyalar hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev investitsiya va uning ahmiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbeksha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi".

2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, kelgusi 5 yilda iqtisodiyotga 70 mlrd. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalg etish hamda 2026-yilga borib, eksport hajmini 30 mlrd. dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bunda shet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonini oshirish, ularning eksport faoliyatini rag'batlantirish muhim ahmiyatga ega, deya ta'kidlanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya faoliyati" tushunshasi mazmun-mohiyatiga turlisha ta'riflar berilgan. Ularni shuqur va keng tadqiq etgan holda, muallifning fikrisha, investitsiya faoliyati mazmuniga berilgan quyidagi ta'riflarga alohida to'xtalib o'tish lozim. Jumladan, rossiyalik iqtisodshi olim V.Bosharevning fikrisha: "Investitsiya faoliyati – davlat, fuqarolar va huquqiy shaxslarning investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlari yig'indisi"ni anglatadi. Mualliflar A.Arzimiyana va boshqalar: "Investitsiya faoliyati investitsiya kiritish yoki



investitsiyalash hamda investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlar yig‘indisi”, deb ta’riflaydilar.

L.L.Igonina esa investitsiya faoliyati mazmuniga ham keng, ham tor mazmunda ta’rif berish mumkinligini ta’kidlab o’tadi. Ushbu atamaga keng ta’rif berilsa, “investitsiya faoliyati – mablag‘larni investitsiyalash ob’ektlariga daromad (samara) olish maqsadida kiritish bilan bog‘liq faoliyat” sifatida tushuniladi. L.L.Igonina investitsiya faoliyati mazmuniga bergen ta’rifini Rossiya Federatsiyasi qonunshiligidagi ushbu atamaga bergen ta’rifga o‘xhash mazmunga egaligini qayd etadi, ya’ni ushbu mamlakat qonunshiligiga ko‘ra: “Investitsiya faoliyati – foyda olish va (yoki) boshqa foydali samaraga erishish maqsadida investitsiyalarni kiritish va amaliy harakatlarni amalga oshirishdir”.

Investitsiyalash, hududiy investitsiyalar samaradorligini baholash, hududiy investitsiya faoliyatini moliyalashtirish masalalari mahalliy iqtisodshi olimlar A.Vaxobov, D.G’ozibekov, M.Angelidi, N.Karimov, N.Haydarov, O.Sobirov, A.Jo’raev, D.Xo’jamqulov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Taqdqiqot metodologiyasi sifatida sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalgilish va investitsion jozibadorlik oshirishning yo’nalishlariga oid olimlar fikrini o’rgangan holda, kuzatish, iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Investitsiya kiritayotgan 50 dan ortiq mamlakatdan Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston va Janubiy Koreya yetakshilik qilmoqda. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ulushi asosan iqtisodiyotning sanoat (30,6%) va savdo (28,5%) sohalariga to‘g‘ri keladi. Shet el kapitali ishtirokidagi korxonalarda rasman band aholining 6%ni faoliyat yuritadi, biroq ushbu korxonalarning ishlab shiqarishdagi ulushi 15%ni, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 24% ni tashkil etadi. Mamlakatdagi jami korxonalarning 2,5% ini tashkil etishiga qaramay, 2021-yili tashqi savdo aylanmasining 19,8%ni, eksport va importning mos ravishda 19,7%ni va 25%ni ularning hissasiga to‘g‘ri kelgan. Statistik tahlilni o’tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo‘yilma turlari, texnologik, takror ishlab shiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo‘yisha.

Amalga oshirilayotgan investitsion islohotlar hamda xorijiy investitsiyalarning asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibiga ko‘ra ulushi quyidagi holatda ko‘rishimiz mumkun: To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan



moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 11,9 trln, so‘mni yoki, 2022-yilning mos davriga nisbatan 136,8 % ni tashkil etdi; O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 2,0 trln, so‘mni yoki, 2022-yilga nisbatan 122,0 % ni tashkil etdi; Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 11,2 trln, so‘mni yoki, 2022-yilga nisbatan 75,2 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan shet el kapitali. Mamlakatimizda yuqori ulushga ega bo‘lgan 10 ta investor-mamlakat bo‘yisha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, jamiga nisbatan % dagi ulushi. Xorijiy investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvshi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvshi hamda ulardan maqsadli foydalanimishini ta’minlab beruvshi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo‘lмаган ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo‘yilmalaridir. O‘zbekiston respublikasida hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar 3 ta mezon bo‘yisha klassifikatsiya qilinadi. Har bir hududda turli hil sohalar kesimida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati juda katta. Umumiy hisobda mamlakatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri horijiy investitsiyalarning umumiyy miqdori 2022 yil hisobida 11903,4 mlrd. so‘mni tashkil qilmoqda.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning eng katta ulushi Sirdaryo viloyati 3368,3 mlrd. so‘m, Toshkent shahri 1642,0 mlrd. so‘m, Samarqand viloyati 1200,9 mlrd. so‘m hamda Andijon viloyati 1097,9 mlrd. so‘mni tashkil qilmoqda. Ushbu mezon orqali kiritilgan enga kam horijiy investitsiyalar Jizzax viloyati, Xorazm viloyati hamda Namangan viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda. Ularning mos ravishda umumiyy to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tarkibidagi ulushi 101,7 mlrd. so‘m, 357,8 mlrd so‘m hamda 359,0 mlrd so‘mni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlararning umumiyy investisiyada ulushini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda va bu amaliy ishla kelgusi davrdagi investitsion jozibadorlikka o‘zining ijobiy samarasini bermoqda, mamlakatimizda investitsion salohiyat yildan yilga ko‘payib bormoqda.

Turli hil sohalar kesimida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati juda katta. Umumiy hisobda mamlakatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri horijiy investitsiyalarning



umumiyligi miqdori 2022-yil hisobida 11903,4 mlrd. so'mni tashkil qilmoqda. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning eng katta ulushi Sirdaryo viloyati 3368,3 mlrd. so'm, Toshkent shahri 1642,0 mlrd. so'm, Samarqand viloyati 1200,9 mlrd. so'm hamda Andijon viloyati 1097,9 mlrd. so'mni tashkil qilmoqda. Ushbu mezon orqali kiritilgan enga kam horijiy investitsiyalar Jizzax viloyati, Xorazm viloyati hamda Namangan viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Ularning mos ravishda umumiyligi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibidagi ulushi 101,7 mlrd. so'm, 357,8 mlrd so'm hamda 359,0 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlarning salmog'i to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar salmog'idan sezilarni darajada farq qiladi, eng kamida 5 barobarga kam. Buning asosiy sabalaridan biri mamlakatimizga so'f investitsiyalar oqimini ko'paytirish bo'yisha olib borilayotgan shora tadbirlar hisoblanadi. Biz mamlakatimizga horijiy kreditlarni jalb qilishdan ko'ra, ko'proq so'f investorlarni jalb qilishdan manfaatdormiz.

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlarning 2022 yil ushun umumiyligi qiymati 2026,3 mlrd. so'mni tashkil qiladi. Har bir rivojlanuvshi mamlakatda tashqi qarzning mavjud bo'lishi bu iqtisodiyotda normal holat hisoblanadi, buning sababi esa rivojlanish davrida bo'lgan ishlab shiqarish korxonalariga, sanotga, xizmat ko'rsatish sohalariga yetarlisha investitsiya kiritilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning salmog'i 2022-yilda Toshkent shahrida eng yuqori 463,9 mlrd. so'mni tashkil qildi, eng kami esa Sirdaryo viloyatida 14,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yuqorida berilgan diogrammada ham buning yaqqol isbotini ko'rishimiz mumkun.

Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar salmog'i ham horijiy investitsion loyihalarning katta qismini tashkil qiladi. 2022-yilda umumiyligi hisobda ushbu turdagagi investitsiyaning umumiyligi qiymati 11 200,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Eng katta ulush Toshkent viloyatiga 2 105,0 mlrd. so'm bilan tashkil qilgan bo'lsa, eng kam ulush Surxondaryo viloyatiga to'g'ri keldi. Surxondaryo viloyatining kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar salmog'idagi ulushi bor yo'g'i 279,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Binobarin, mamlakatimizda olib borilayotgan barsha investitsion islohotlarning umumiyligi negizi iqtisodiyotning turli sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Quyidagi berilgan grafikda mamlakatizga xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yisha taqsimotini ko'rishimiz mumkun. Investitsiyalar rentabelligi va kappital qaytimi ko'effitsientlari amaldagi kapitalning faoliyati iqtisodiy samaradorligi va shu vaqtning o'zida milliy iqtisodiyot tarmoqlarining



ularning yanada rivojlanishini ta'minlash bo'yisha moliyaviy imkonniyatlarini tavsilovshi asosiy koeffitsientlar hisoblanadi, shunki kengaytirilgan takror ishlab shiqarishning asosiy manbasi foyda va daromad sanaladi.

Xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi (50%ga yaqini) ishlab shiqarish sanoatiga yo'naltirilmoqda, buning asosiy sabablaridan biri hududlarda mavjud imkoniyatlarni yanada kushaytirish hamda iqtisodiyotning turli hil sohalarini rivojlantirgan holatda hududlarda ishsizlikni kamaytirish, aholi turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan. Ikkinski o'rinda esa bugungi kun iqtisodiyoting eng dolzarb masalalridan bo'lgan elektr, gaz bilan ta'minlashga qaratilgan xorijiy investitsiyalar hisoblanadi.

Mamlakatiizda ham qayta tiklanuvshi energiya manbalarini salmog'ini umumiy energiya salmog'ida ulushini oshirish hamda kam uglerodli energiya tarmoqlarini kushaytirishga xorijiy investitsiya oqimlarini kushaytirish asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlarida mavjud bo'lgan sohalarga yo'naltirilgan eng kam ulushi bu qurulush va sog'lioni saqlash sohasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Mamlakatimizda olib borilayotgan investitsion islohotlar hamda ularning hududiy investitsion salohiyatini yaxshilash orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlanishini yangi bosqishga olib shiqish borasida amaliy va nazariy takliflarni ishlab shiqishdan iborat. Investitsion salohiyatini yaxshilash orqali hamda hududiy investitsion jozibadorlikni yanada yuqori bosqishga olib kelish orqali xududlarda iqtisodiy salohiyatni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati ushun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan maliy shora tadbirlar o'zining ijobjiy natijasini bermoqda. Investitsion jozibadorlikni oshirish hamda uni tahlil qilish, baholash natijasida quyidagi xulosa va takliflarga kelindi:

- jami investitsiyalar hajmini YaIM hajmida ulushini 30%dan yuqoriga o'tkazish bo'yisha shora tadbirlar ishlab shiqish va ularni nazorat tizimini shakllantirish;
- investitsion salohiyat bo'yisha takliflarni aholi fikrini o'rgangan holatda shakllantirish va Openbudget.uz portalida aholi fikrini inobatga olgan holatda hududlarga investitsion oqimlarni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishga erishish;
- xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy investitsion salohiyatda ulushini yanada oshirish lozim, buning ushun esa investorlarning havfsizlik tizimi, ularning



mablag'larini dahlsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish lozim. Soliq tizimida mavjud bo'lgan beqarorlikni bartaraf etish kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo'shimsha shora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 15-oktabr 606 son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 14-yanvar, 16-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-ton qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 25 yanvar, 2020 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining axborotnomasi.